




O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI



NAVOIY VILOYATIDA O'RTA-MAXSUS, PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI



O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus professional ta'lim tizimi

Professional ta'lim tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang'ich, o'rt va o'rt maxsus professional ta'lim bosqichlarini joriy qilish orqali mehnat bozori uchun malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda mazkur jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish maqsadida, 2020/2021 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston Respublikasida Ta'limning xalqaro standart tasniflagichi (TXST) darajalari bilan uyg'unlashgan yangi boshlang'ich, o'rt va o'rt maxsus professional ta'lim tizimi hamda tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari joriy etiladigan ta'lim muassasalari tarmog'i tashkil etildi.

Ma'lumot uchun: Milliy ta'lim tizimlarining tuzilishi va ta'lim dasturlari mazmuni xilma-xilligi tufayli turli mamlakatlarning erishgan natijalarini taqqoslash solishtirish va ularning milliy va xalqaro miqyosdagi maqsadlar sari olg'a siljishini kuzatish qiyin bo'lishi mumkin. Global miqyosda ta'lim tizimlarining jihatlari va jarayonlarini tushunish va to'g'ri talqin qilish uchun ma'lumotlarning solishtirilishini ta'minlash ayniqsa muhimdir. Bunga xalqaro miqyosda taqqoslanadigan statistik ma'lumotlarni tasniflash va taqdim etish uchun kontseptual hujjat - Ta'limning Xalqaro Standart Klassifikatsiyasidan (TXST) foydalanish orqali erishish mumkin.

TXST-2011 tasnifi 2011- yil noyabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining 36-sessiyasida qabul qilingan. Dastlab YUNESKO tomonidan 1970- yillarda ishlab chiqilgan va birinchi marta 1997- yilda qayta ko'rib chiqilgan TXST tasnifi milliy va xalqaro miqyosda ta'lim statistikasini yig'ish va taqdim etish uchun vosita bo'lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat butun dunyo bo'ylab ta'lim tizimidagi yangiliklarni yanada aniqroq aks ettirish uchun vaqti-vaqti bilan yangilanib turiladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, professional ta'limi tizimi

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim

**Boshlang'ich
professional ta'lim**



**O'rta professional
ta'lim**



**O'rta maxsus
professional ta'lim**



Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.



NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Ma'lumot uchun: O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalash-tirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Akademik litseylar soni (o'quv yili boshiga, birlikda)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni (o'quv yili boshiga, ming kishi)




Navoiy viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshida **3** ta akademik litseylarda jami **1,4** ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.

**Akademik litsey o'quvchilarining
gender taqsimoti**
(2021/2022 o'quv yili boshiga, foizda)




Agar akademik litseylardagi barcha o'quvchilarni 100 foiz deb olinsa, ularning **35,0 %** qizlar, **65,0 %** o'g'il bolalar tashkil etadi.




Akademik litsey o'qituvchilari (o'quv yili boshiga, kishi)

2021- yilda akademik litseylarda dars beradigan o'qituvchilar soni 2020- yilga nisbatan 7 nafarga yoki **6,3** foizga ko'paydi va **119** nafarni tashkil etdi.




Akademik litseylar o'qituvchilarining gender taqsimoti

(2021/2022 o'quv yili boshiga, foizda)



Akademik litseylarda jami o'qituvchilar soni 100 foiz deb olinsa, ularning **59,7** foizini ayollar, **40,3** foizini erkaklar tashkil etadi.



NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Ma'lumot uchun: Kasb-hunar maktablarida kadrlar tayyorlash umumta'lim muassasalarining 9-sinf bitiruvchilari hisobidan shakllantirilgan guruhlarda 2 yillik umumta'lim va mutaxassislik fanlarining integratsiyalashgan dasturlari asosida kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar maktablari soni, birlikda



Kasb-hunar maktablarini shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanishi

(2021/2022 o'quv yili boshiga, birlikda)

Navoiy sh.	1
Zarafshon sh.	1
Karmana t.	1
Konimex t.	1
Qiziltepa t.	2
Navbahor t.	1
Nurota t.	2
Uchquduq t.	1
Xatirchi t.	1


2021/2022 o'quv yili boshiga Navoiy viloyatida 11 ta kasb-hunar maktablari mavjud.




NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida tahsil olayotgan o'quvchilarning taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, ming kishi)

Shahar va tumanlar bo'yicha (2021/2022 o'quv yili boshiga, ming kishi)



Navoiy viloyati 6,1



2021/2022 o'quv yili boshiga kasb-hunar ta'limi muassasalarida **6,1** ming o'quvchi tahsil olmoqda. Shahar va tumanlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida – **1,3** ming nafar, eng kam Konimex tumanida – **0,4** ming nafar.

NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI


Agar kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi barcha o'quvchilar **100** foiz deb olinsa, ularning **24,5** foizini qizlar, **75,5** foizini o'g'il bolalar tashkil etadi.



Qiz bolalar
24,5 %

O'g'il bolalar
75,5 %


Kasb-hunar maktablari o'quvchilarining shahar va tumanlar bo'yicha gender taqsimoti (2021/2022 o'quv yili boshiga, foizda)




NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kasb-hunar maktablarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarning taqsimlanishi, kishi (o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)

Shahar va tumanlar bo'yicha



Navoiy viloyati




2021- yilda kasb-hunar maktablarida dars beradigan o'qituvchilar soni 2020- yilga nisbatan **48** nafarga yoki **1,2** barobarga ko'payib, **275** nafarni tashkil etdi.

Shahar va tumanlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Qiziltepa tumanida – **43** nafar, eng kami – Uchquduq tumanida – **18** kishi qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollejlar soni (o'quv yili boshiga, birlikda)

Shahar va tumanlar bo'yicha (2021/2022 o'quv yili boshiga, birlikda)



Navoiy viloyati




2021/2022 o'quv yili boshiga Navoiy viloyatida **4** ta kollej mavjud.


NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'quvchilarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, ming kishi)

Shahar va tumanlar bo'yicha (2021/2022 o'quv yili boshiga, ming kishi)



Navoiy viloyati




2021/2022 o'quv yili boshiga Navoiy viloyatidagi 4 ta kollejda 1,7 ming nafar o'quvchi tahsil olmoqda.


NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Kollej o'qituvchilarining taqsimlanishi, kisi (o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)

Shahar va tumanlar bo'yicha



Navoiy viloyati




2021/2022 o'quv yili boshiga kollejlarda **83** nafar (o'rindoshlarsiz) o'qituvchilar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ko'rsatkich 2020- yilga nisbatan (2020- yilda - **102** nafar) 18,6 foizga kamaygan.


NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikumlar soni (o'quv yili boshiga, birlikda)

Shahar va tumanlar bo'yicha (2021/2022 o'quv yili boshiga, birlikda)



Navoiy viloyatida




Navoiy viloyatida 2021/2022 o'quv yili boshiga texnikumlar soni **11** tani tashkil etdi, 2020/2021 o'quv yili boshiga nisbatan **2** taga ko'paydi.


NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum talabalarining taqsimlanishi (o'quv yili boshiga, ming kishi)

Shahar va tumanlar bo'yicha



Navoiy viloyati




2021/2022 o'quv yili boshiga Navoiy viloyatidagi texnikumlarda **6,7** ming talaba tahsil olmoqda, eng yuqori ko'rsatkich Navoiy shahrida (**2,1 ming**), eng past ko'rsatkich Navbahor tumanida (**0,2 ming**) qayd etilgan.


NAVOIY VILOYATIDA O'RTA MAXSUS PROFESSIONAL TA'LIM FAOLIYATINING ASOSIY STATISTIK KO'RSATKICHLARI

Texnikum o'qituvchilari soni, kishi (o'quv yili boshiga, o'rindoshlarsiz)

Shahar va tumanlar bo'yicha



Navoiy viloyati



2021/2022 o'quv yili boshiga texnikumlarda **243** nafar o'qituvchi faoliyat yuritgan, bu o'tgan o'quv yiliga (**177** nafar) nisbatan **1,4** barobar ko'pdir. Shahar va tumanlar kesimida eng ko'p o'qituvchilar Navoiy shahrida – **86** nafar, eng kami – Navbahor tumanida – **6** nafar qayd etildi.

Statistik ko'rsatkichlarga izoh

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari tizimi – boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional, kasb-hunar ta'limi maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy, o'quv-metodik, moddiy-texnik va psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlaydigan akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlardan iborat bo'ladi.

Akademik litsey – uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Professional ta'lim – ta'lim oluvchilarda ma'lum bir mutaxassislik va kasblar bo'yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta'lim tizimi.

Kasb-hunar maktabi – Xalqaro tasniflagichning 3-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida 9-sinf bitiruvchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga qaratilgan boshlang'ich professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasasi hisoblanadi.

Kollejlari – Xalqaro tasniflagichning 4-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida o'rta professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.

Texnikumlar – Xalqaro tasniflagichning 5-darajasiga mos keluvchi ta'lim dasturlari asosida oliy ta'lim tizimi bilan integratsiyalashgan o'rta maxsus professional ta'lim bosqichida kadrlar tayyorlaydigan, oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadigan ta'lim muassasalari hisoblanadi.